XALQ DEPUTATLARI SAYXUNOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 4-iyul VI-80-116-9-126-K/24 Sayxunobod tumani

Xalq deputatlari Sayxunobod tuman Kengashining Sayxunobod tumani aholisi, ijtimoiy soha obyektlari va iqtisodiyot tarmoqlarini 2024-2025-yillarda energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash to‘g‘risida

2024-yil 25-30 mart kunlari Respublika ishchi guruhi tomonidan mahalliy hokimliklar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son va Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-iyuldagi 294-sonli qaror talablari bajarilishi bo‘yicha Sayxunobod tumanida ijrosi o‘rganildi.

Tumanda energiya resurslarining tejamkorligiga erishish, ulardan noqonuniy foydalanishni oldini olish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish bo‘yicha o‘tkazilgan o‘rganishlarda quyidagilar aniqlandi.

2024-yil aprel-dekabr va 2025-yil yanvar-mart oylarida tumanda jami 6,224 mln.kVt.soat elektr energiyasi va 2,478 mln.kub.metr tabiiy gaz iqtisod qilish manbasi aniqlandi.

Tumanda energiya tejamkorlik va energiya resurslardan oqilona foydalanish orqali, belgilangan chora-tadbirlarni bajarish natijasida 2024-yil prognoz iste’mol rejasiga nisbatan elektr energiyasi 4,5 foiz va tabiiy gaz 10,1 foizga iqtisod qilishga erishiladi.

Ushbu iqtisod qilish manbalar, tumandagi har bir MFY kesimida quyosh panellari, quyosh suv isitish kollektorlari, sertifikatlangan gaz yondirgichlar o‘rnatish va boshqa texnik tadbirlarni amalga oshirish hamda elektr va gaz xo‘jaligini 2024-2025 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorlashga doir rejalaridan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilindi.

Xususan,

Yuridik va aholi iste’molchilariga quyosh foto panellari va geliokollektorlar o‘rnatish hisobiga 2,797 mln.kVt.soat elektr energiyasi iqtisod qilishga;

Energiya resurslari ta’minoti korxonalari tomonidan tarmoqlarda yo‘qotishlarni oldini olish maqsadida rekonstruksiya va modernizatsiya ishlarni olib borilishi, yuklamalarni iste’molchilar kesimida teng taqsimlash orqali 1,078 mln.kVt.soat elektr energiyasi va 0,206 mln.kub.metr tabiiy gaz iqtisod qilishga;

Tadbirkorlik subyektlarda reaktiv quvvatni kopensatsiyaqilish uchun kondensator qurilmasi o‘rnatish hisobiga 0,24 mln.kVt.s elektr energiyasi iqtisod qilishga;

Tadbirkorlik subyektlari, ishlab chiqarish korxonalari va davlat muassasalarida yoqilg‘i-energiya resurslarini iqtisod qilishga qaratilgan tashkiliy texnik tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida 1,809 mln.kVt.soat elektr energiyasi va 0,342 mln.kub.metr tabiiy gaz iqtisod qilishga;

Ko‘cha yoritish chiroqlarini zamonaviy energotejamkor yoritish chiroqlariga almashtirish orqali 0,3 mln.kVt.soat elektr energiyasi iqtisod qilishga;

Davlat muassasalari hamda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarni modernizatsiya qilish orqali tabiiy gazdan muqobil bo‘lgan ko‘miryoqilg‘isiga o‘tkazish hisobiga 0,142mln.kub.metr tabiiy gaz iqtisod qilishga;

Shuningdek, iste’molchilardagi foydlanishda bo‘lgan nostandart (qo‘lbola) gaz yondirgichlarni energiya tejamkoriga almashtirish hisobiga 1,788 mln.kub.metr tabiiy gaz sarfini iqtisod qilishga erishiladi.

Ishlab chiqilgan tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida tumanda elektr energiyasi va tabiiy gaz ta’minoti barqarorligiga erishilib, energiya resurslari isrofgarchiligi oldi olinadi.

Mutaxassislar tomonidan elektr energiyasi va tabiiy gazdan oqilona foydalanish, quyosh foto panellari va geliokollektorlarni ekspluatatsiya qilish bo‘yicha qo‘llanma ishlab chiqildi.

2024-yilda energiya resurslaridan oqilona foydalanish, ularning talon-taroj qilish holatlarini oldini olish, quyosh foto panellari o‘rnatish orqali iqtisod qilingan energiya resurslarini iste’molchilarga, xususan navbatda aholi va ijtimoiy soha ob’ektlarga yo‘naltirish maqsadida Xalq deputatlari Sayxunobod tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. Sayxunobod tumanida energiya tejamkorlik va energiya resurslardan oqilona foydalanish, xususan, elektr energiyasi iste’molini 4,5 foiz va tabiiy gaz iste’molini 10,1 foiz iqtisod qilish maqsadida:

Elektr energiyasi va tabiiy gazdan oqilona foydalanish, quyosh foto panellari va geliokollektorlarni ekspluatatsiya qilish bo‘yicha qo‘llanma 1-ilovaga muvofiq;

Tumanda 2024-yil aprel-dekabr va 2025-yil yanvar-mart oylarida elektr energiyasi va tabiiy gazni iqtisod qilish maqsadli ko‘rstakichlari 2-ilovaga muvofiq (mas’ullar: tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Xoliqberdiyev tuman elektr ta’minoti boshlig‘i A.Ziyadullayev va tuman gaz ta’minoti bo‘limi boshlig‘i S.Mansurov);

Davlat muassasalarini modernizatsiya qilish orqali tabiiy gazga muqobil bo‘lgan ko‘mir yoqilg‘isiga o‘tkazish 3-ilovaga muvofiq (mas’ullar: tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Xoliqberdiyev va sohaga mas’ul bo‘lgan davlat muassasalari rahbarlari);

Har bir iste’molchi bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar orqali elektr energiyasi va tabiiy gazni iqtisod qilish chora-tadbirlari rejasi 4-ilovaga muvofiq (mas’ullar: tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Xoliqberdiyev, tuman elektr ta’minoti boshlig‘i A.Ziyadullayev, tuman gaz ta’minoti bo‘limi boshlig‘i S.Mansurov va tadbirkorlik subyekti rahbarlari);

Energiya resurslari ta’minoti korxonalari tomonidan tarmoqlarda yo‘qotishlarni oldini olish maqsadida rekonstruksiya va modernizatsiya ishlarni olib borilish,

yuklamalarni iste’molchilar kesimida teng taqsimlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 5-6-ilovalarga muvofiq (mas’ullar: tuman elektr ta’minoti boshlig‘i A.Ziyadullayev va tuman gaz ta’minoti bo‘limi boshlig‘i S.Mansurov);

Tanlov asosida yuridik iste’molchilarni energetika resurslaridan foydalanish holatlari o‘rganish natijalari bo‘yicha energetika pasporti 7-ilovaga muvofiq (mas’ullar: tuman elektr ta’minoti boshlig‘i A.Ziyadullayev, tuman gaz ta’minoti bo‘limi boshlig‘i S.Mansurov va tadbirkorlik subyekti rahbarlari);

Aholi iste’molchilari, ijtimoiy soha hamda tadbirkorlik subyektlarga quyosh foto panellari o‘rnatish rejasi (mas’ullar: tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Xoliqberdiyev, tuman elektr ta’minoti boshlig‘i A.Ziyadullayev va tadbirkorlik subyekti rahbarlari);

Tuman bo‘yicha iste’molchilar soni va ular tomonidan sarflangan yoqilg‘i energiya resurslar iste’moli bo‘yicha ma’lumot (mas’ullar: tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Xoliqberdiyev, tuman elektr ta’minoti boshlig‘i A.Ziyadullayev va “Ko‘mir ta’minoti” MChJ Sirdaryo viloyati filiali rahbari J.Xudoyberdiyev);

Tumanda energosamaradorlikni oshirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar nomi va tejaladigan yoqilg‘i energiya resurslar miqdori bo‘yicha ma’lumotlar (mas’ullar: tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Xoliqberdiyev, tuman elektr ta’minoti boshlig‘i A.Ziyadullayev va tadbirkorlik subyekti raxbarlari).

Tumanda 2024-yil aprel-dekabr va 2025-yil yanvar-mart oylari uchun iste’molchilar kesimida energiya resurslarni tejash bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar hamda iste’molchilar tomonidan elektr energiyasidan foydalanish jarayonida yuzaga kelayotgan reaktiv energiyasi iste’molini kamaytirish maqsadida kondensator qurilmalari o‘rnatish rejasi (mas’ullar: tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Xoliqberdiyev, tuman gaz ta’minoti bo‘limi boshlig‘i S.Mansurov, tuman elektr ta’minoti boshlig‘i A.Ziyadullayev va tadbirkorlik subyekti rahbarlari).

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (G‘.Xoliqberdiyev) - tumandagi ko‘cha yoritish qurilmalarini to‘liq 2024-yil 1-iyunga qadar quyosh foto panellari yordamida yoritilishi ta’minlansin.

3. Tuman elektr tarmoqlari korxonasi rahbari (A.Ziyadullayev) - 2024-yil 1-iyundan boshlab ko‘cha yoritish tizimi elektr tarmoqlaridan to‘liq uzilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashini mazkur qarorning 1 va 2-bandlarida nazarda tutilgan ilovalardagi rejalar ijrosi bajarilishi joylarda qat’iy nazoratga olinsin.

5. Tuman soliq inspeksiyasi rahbari (I.Kuchqorov) - energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash maqsadida bozor va do‘konlarda energiya samaradorlik toifasi “B” va undan quyi toifadagi energiya sarflovchi maishiy elektr priborlari olib kirilishi va sotilishini taqiqlash bo‘yicha doimiy nazorat tadbirlarini olib borsin.

6. Kengash qarori ijrosi bo‘yicha ijroiya hokimiyati organlarining axboroti har oy yakuni bo‘yicha Xalq deputatlari Kengashi yig‘ilishida eshitib borish tizimi yaratilsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Sessiya raisi



JALOLOV TURG‘UN ISROILOVICH

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani
Kengashining
2024-yil 4-iyuldagi
VI-80-116-9-126-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Elektr energiyasi va tabiiy gazdan oqilona foydalanish,
quyosh fotoelektr stansiyalari va geliokollektorlarni
ekspluatatsiya qilish bo‘yicha**

YO‘RIQNOMA

1. Elektr energiyasi bo‘yicha

Elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda zaxarli chiqindilar yuzaga keladigan korxonalarda ularni o‘z vaqtida utilizatsiya qilish va zararsizlantirishni ta’minlash shart.

“Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari”ga asosan iste’molchilar elektr qurilmalari va elektr tarmoqlarini ishonchli, xavfsiz va samarali ekspluatatsiya qilishni ta’minlash hamda ularni ishga yaroqli holatda saqlab turishdan iborat.

Ishlab turgan elektr qurilmalariga xizmat ko‘rsatish, ularda tezkor almashlab ulashlarni o‘tkazish, ta’mirlash, montaj yoki sozlash va sinash ishlarini tashkil etish hamda amalga oshirish maxsus tayyorlangan elektrotexnik xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Korxonaning mulkchilik shaklidan qat’i nazar, elektrotexnik xodimlari energetika xizmati tarkibida bo‘lishlari shart.

Elektrotexnik xodimlar o‘z korxonasining texnologik xususiyatlarini aniq tasavvur qilishi, mehnat va ishlab chiqarish intizomiga qat’iy rioya qilishi va barcha choralar bilan ularni mustahkamlashi kerak hamda mazkur Qoidalar, XTQ, yo‘riqnomalar va boshqa normativ hujjatlar talablarini bilishi va ularga rioya etishi shart.

Elektr xavfsizligi bo‘yicha II-V guruhga ega bo‘lgan elektrotexnik xodimlarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

18 yoshga to‘lmagan shaxslarga elektr qurilmalarida mustaqil ishlashga ruxsat etilmaydi;

Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 10 oktabrda 1864-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Reaktiv quvvat kompensatsiyasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom;

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-son qarori bilan tasdiqlangan “Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari.

Ma'lumot uchun: *Energiya resurslaridan oqilona foydalanish, tejash va tabiiy gazga muqobil bo'lgan boshqa yoqilg'idan foydalanish masalalari quyidagi* ***huquqiy me'yoriy xujjatlarda belgilab qo'yilgan:***

1. O'zbekiston Respublikasining ***1997 yil 25 apreldagi*** *"Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi* ***412-1-son qonun;***

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotning energiya amaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" ***2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son qaror;***

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoqilg'i energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" ***2023 yil 13 fevraldagi PQ-54-son qaror.***

*4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"****2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-son qaror****;*

5. Vazirlar Mahkamasining "Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" ***2018 yil 12 yanvardagi 22-son qaror.***

2. Tabiiy gaz bo'yicha

Barcha turdagi iste'molchilarda tabiiy gazdan foydalanishi uchun yuqori tejamkor **zamonaviy texnologiyalar va sertifikatlangan** gazdan foydalanish qurilmalari bo'lishi shart.

Ijtimoiy soha muassasalari *(maktab va maktabgacha ta'lim hamda tibbiyot muassasalari)***ni lokal** *(alohida)* isitish tizimiga ega bo'lgan ob'ektlarini to'liq **ko'mir yoqilg'isiga o'tkazish.**

Qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi *(sement, ohak, g'isht)* korxonalarini tabiiy gazdan **to'liq ko'mir yoqilg'isiga o'tkazish.**

Yirik sanoat korxonlarida yoqilg'i-energiya resurslari *(tabiiy gaz, neft mahsulotlari va elektr energiya)*ni tejash bo'yicha ishlab chiqilgan va tasdiqlangan **chora-tadbirlarini bajarilishini nazorat qilish.**

Isitish tizimi yo'q ko'p qavatli uylarni markazlashgan issiqlik tizimlariga o'tkazish bo'yicha tegishli qarorga asosan tasdiqlangan **loyihalarni bajarilishini nazorat qilish.**

Gaz ta'minoti korxonlari tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan rejaga asosan, gaz quvurlari va qurilmalarini ta'mirlash *(mukakammal, joriy ta'mir hamda modernizatsiya va rekonstruksiya)* **ishlarini borishini nazorat qilish.**

Tegishli soha mutahassislari bilan birgalikda ulgurji iste'molchilarga o'rnatilgan elektron gaz hisoblagichlarni ko'rsatkichlarini markazlashtirilgan bazaga *(ASKUG tizim)* **onlayn uzatib borilayotganligini nazorat qilish.**

Gaz ta’minoti korxonalari tomonidan tabiiy gaz yetkazib berilayotgan barcha turdagi *(aholi, ulgurji)* iste’molchilarda zamonaviy energiya tejamkor va **Davlat standarti talablariga javob beradigan gaz jixozlari** *(isitish, ovqat tayyorlash, suv isitish, ishlab chiqarish)* **o‘rnatilganligini nazorat qilish.**

Tabiiy gazdan noqonuniy foydalanish xolatlarini oldini olish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish va aniqlangan holatlar bo‘yicha zudlik bilan huquqni muxofaza qilish organlariga habar berish tizimini joriy etish.

Ma’lumot uchun: *Energiya resurslaridan oqilona foydalanish, tejash va tabiiy gazga muqobil bo‘lgan boshqa yoqilg‘idan foydalanish masalalari quyidagi* ***huquqiy me’yoriy xujjatlarda belgilab qo‘yilgan:***

1. O‘zbekiston Respublikasining ***1997 yil 25 apreldagi*** *“Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi* ***412-1-son qonun;***

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotning energiya amaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” ***2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son qaror;***

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoqilg‘i energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” ***2023 yil 13 fevraldagi PQ-54-son qaror.***

*4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”****2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-son qaror****;*

5. Vazirlar Mahkamasining “Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” ***2018 yil 12 yanvardagi 22-son qaror.***

3. Quyosh fotoelektr stansiyalari ekspluatatsiya qilish bo‘yicha

Quyosh fotoelektr tizimlar quyosh panellari yordamida quyosh nurini elektr energiyasiga to‘g‘ridan – to‘g‘ri aylantiradigan tizimdir. Fotoelektr tizimlari turar-joy, tijorat va sanoat maqsadlari uchun foydalaniladi.

Fotoelektr tizimlari qanday ishlaydi: Fotoelektr tizimlari fotovoltaik hujayralardan tashkil topgan bir yoki bir nechta quyosh panellaridan iborat. Quyosh nurlari hujayralarga tushganda, ular elektr tokini hosil qiladi, bu elektr jihozlarini quvvatlantirish uchun ishlatilishi yoki keyinchalik foydalanish uchun batareyada saqlanishi mumkin.

Fotoelektr tizimlarining turlari: Fotoelektr tizimlarining bir nechta turlari mavjud, jumladan, tarmoqqa ulangan (on-grid) tizimlar, tarmoqdan tashqari (off-grid) tizimlar va fotoelektrni boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan birlashtiradigan gibrid tizimlar.

Fotoelektr tizimlarining afzalliklari: Fotoelektr tizimlari bir qator afzalliklarni taqdim etadi, jumladan, qazib olinadigan yoqilg‘i turlariga bog‘liqlikni kamaytirish, energiya xarajatlarini kamaytirish va chekka hududlarda ishonchli elektr energiyasini ta’minlash.

Fotoelektr tizimining komponentlari: Fotoelektr tizimlari odatda Quyosh panellari, invertorlar, batareyalar (off-grid yoki gibrid tizimlarda) va montaj tuzilmalari va simlar kabi boshqa komponentlarni o‘z ichiga oladi.

O‘rnatish: Fotoelektr tizimini to‘g‘ri o‘rnatish uning xavfsiz va samarali ishlashini ta’minlash uchun juda muhimdir. Mahalliy qurilish qoidalari va xavfsizlik qoidalarini yaxshi biladigan litsenziyaga ega mutaxassis bilan ishlash tavsiya etiladi.

Xizmat ko‘rsatish: Fotoelektr tizimlari muntazam parvarishlashni talab qiladi, jumladan quyosh panellarini tozalash, komponentlarni tekshirish va tizimning ishlashini tekshirish.

Narxi: Fotoelektr tizimining narxi tizimning o‘lchamiga, turiga va joylashishiga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, so‘nggi yillarda fotoelektr tizimlari yanada arzonlashdi va ko‘plab uy egalari va korxonalar davlat imtiyozlari yoki chegirmalariga ega bo‘lishlari mumkin.

Umuman olganda, Fotoelektr tizimlari keng ko‘lamli ilovalar uchun ishonchli, tejamkor elektr energiyasini ta’minlaydigan istiqbolli qayta tiklanadigan energiya manbai hisoblanadi.

Fotoelektr tizimlardan foydalanish

On-grid: Tarmoqqa ulangan fotoelektr tizimlari elektr tarmog‘iga ulangan va ortiqcha elektr energiyasini tarmoqqa sotishi mumkin, bu esa uy egalari yoki korxonalarga elektr energiyasidan foydalanishni qoplash va daromad olish imkonini beradi.

Off-grid: tarmoqdan tashqari fotoelektr tizimlari elektr tarmog‘iga ulanmagan va chekka hududlarda yoki tarmoqdan tashqari uylar yoki kabinalarni elektr energiyasi bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

Gibrid tizimlar: Gibrid fotoelektr tizimlari turli xil sharoitlarda ishonchli elektr energiyasini ta’minlash uchun fotoelektr tizimni shamol yoki gidroenergetika kabi boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan birlashtiradi.

Uy sharoitida: fotoelektr tizimlari uy uchun elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun turar-joy tomlariga o‘rnatilishi mumkin. Bu uy egasining elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini kamaytirishi yoki yo‘q qilishi mumkin, bu esa energiya to‘lovlari uchun pulni tejash imkonini beradi.

Tijorat va sanoat maqsadlarida foydalanish: Fotoelektr tizimlari savdo va sanoat binolariga ishonchli elektr energiyasi bilan ta’minlash va energiya xarajatlarini kamaytirish uchun o‘rnatilishi mumkin.

Kichik qurilmalar: Fotoelektr tizimlari lager uskunalarini quvvatlantirish yoki yo‘lda elektron qurilmalarni zaryad qilish kabi portativ ilovalar uchun ishlatilishi mumkin.

Jamoatchilik quyosh loyihalari: Fotoelektr tizimlari jamoat quyosh loyihalarining bir qismi sifatida o‘rnatilishi mumkin, bu esa jamiyatdagi aholi yoki korxonalarga quyosh energiyasidan foyda olish imkonini beradi.

Umuman olganda, fotoelektr tizimlari turli xil ilovalar ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilishi mumkin bo‘lgan ko‘p qirrali va ishonchli elektr manbasini taklif qiladi.

Fotoelektr tizimlarni o‘rnatish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Fotoelektr tizimini o‘rnatish uchun to‘g‘ri joyni tanlash uning energiya ishlab chiqarish va samaradorligini maksimal darajada oshirish uchun muhimdir.

Quyosh radiatsiyasi: Fotoelektr tizimlari elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun quyosh nurini talab qiladi, shuning uchun etarli quyosh nurlanishini oladigan joyni tanlash muhimdir. Odatda, kuniga ko‘proq soat quyosh nuri bo‘lgan joylar fotoelektr tizimlari uchun ko‘proq mos keladi. Bundan tashqari, quyosh nuriga maksimal darajada ta’sir qilish uchun daraxtlardan, binolardan yoki boshqa to‘siqlardan soya qilishdan qochish kerak.

Orientatsiya: Fotoelektr panellarining yo‘nalishi energiya ishlab chiqarishni maksimal darajada oshirish uchun muhimdir. Shimoliy yarim sharda janubga qaragan panellar eng ko‘p quyosh nurini oladi, janubiy yarimsharda esa shimolga qaragan panellar idealdir.

Tomning balandligi: tomning balandligi yoki burchagi fotoelektr tizimining samaradorligi uchun ham muhimdir. **30 dan 45 darajagacha** bo‘lgan tomning balandligi odatda fotoelektr tizimlari uchun idealdir, chunki u energiya ishlab chiqarish va o‘z-o‘zini tozalash o‘rtasida yaxshi muvozanatni ta’minlaydi.

Tomning tuzilishi: fotoelektr tizimini o‘rnatishda tomning strukturaviy yaxlitligini ham hisobga olish kerak. Tom fotoelektr panellarining og‘irligini ko‘tarishi va har qanday oqish yoki shikastlanishning oldini olish uchun yaxshi holatda bo‘lishi kerak.

Tarmoqqa kirish: Fotoelektr tizimlari odatda elektr tarmog‘iga ulanadi, shuning uchun tarmoqqa ulanishga qulay joyni tanlash muhimdir.

Iqlim: Fotoelektr tizimi uchun joy tanlashda mahalliy iqlim ham hisobga olinishi kerak. Fotoelektr tizimlari keng harorat oralig‘ida ishlashi mumkin, ammo kuchli qor yoki do‘l kabi ekstremal ob-havo sharoitlari ularning ishlashiga ta’sir qiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, fotoelektr tizimi uchun eng yaxshi joyni tanlash, maksimal energiya ishlab chiqarish va samaradorlikni ta’minlash mumkin. Tizim xavfsiz va mahalliy qoidalariga muvofiq o‘rnatilganligiga ishonch hosil qilish uchun professional fotoelektr o‘rnatuvchi bilan maslahatlashish lozim.

Texnik xizmat ko‘rsatish

Tekshirish: Professional tekshiruv tizim bilan bog‘liq har qanday muammolarni aniqlashi va uning to‘g‘ri ishlashini ta’minlashi mumkin. Bunga panellarning shikastlanishi, bo‘shashgan ulanishlar va tizimning ishlashiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan boshqa muammolarni tekshirish kiradi.

Tozalash: fotoelektr panellari vaqt o‘tishi bilan chang va boshqa ifloslantiruvchi moddalarni to‘plashi mumkin, bu ularning samaradorligini pasaytiradi. Professional tozalash xizmatlari har qanday birikmani olib tashlashi mumkin, bu esa panellarning eng yaxshi ishlashini ta’minlaydi.

Ta’mirlash: Agar fotoelektr tizimi to‘g‘ri ishlamasa, ta’mirlash talab qilinishi mumkin. Bu singan yoki shikastlangan panellarni tuzatish, noto‘g‘ri invertorlar yoki simlarni almashtirish va tizimning ishlashiga ta’sir qiladigan boshqa muammolarni hal qilishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Yangilanishlar: Texnologiya rivojlanishi bilan samaradorlik yoki quvvatni oshirish uchun fotoelektr tizimining tarkibiy qismlarini yangilash foydali bo‘lishi mumkin. Bu tizimning eng yaxshi ishlashini ta’minlash uchun panellarni, invertorlarni yoki boshqa komponentlarni yangilashni o‘z ichiga olishi mumkin.

Monitoring: Ko‘pgina fotoelektr tizimlari tizimning ishlashini kuzatadigan va biron bir muammo yuzaga kelganda egasini ogohlantiradigan monitoring xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Monitoring xizmatlari potensial muammolarni asosiy muammolarga aylanishidan oldin aniqlashga yordam beradi va tizim samarali va xavfsiz ishlashini ta’minlaydi.

Xavfsizlik qoidalari

Tizimni o‘chiring: Fotoelektr tizimiga texnik xizmat ko‘rsatish yoki ta’mirlashni amalga oshirishdan oldin, tizim o‘chirilgan va quvvatsizlanganligiga ishonch hosil qiling. Bu tizimni tarmoqdan uzish yoki o‘chirish tugmasi yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Himoya vositalaridan foydalaning: Fotoelektr tizimida ishlaganda, qo‘lqop, himoya ko‘zoynagi va elektr o‘tkazmaydigan poyabzal kabi tegishli himoya vositalarini taqing. Bu elektr toki urishi va boshqa xavflardan himoya qilishga yordam beradi.

Ko‘rsatmalarga rioya qiling: Fotoelektr tizimini o‘rnatish, texnik xizmat ko‘rsatish yoki ta’mirlashda ishlab chiqaruvchining ko‘rsatmalariga amal qiling. Tizim qanday ishlashini va qanday xavfsizlik choralarini ko‘rishingiz kerakligini tushunganingizga ishonch hosil qiling.

Tizimni toza tuting: Chang va xar xil qoldiq moddalar Quyosh nurini to‘sib qo‘ymaslik va tizim samaradorligini pasaytirish uchun fotoelektr panellarini muntazam tozalang. Tozalash uchun ishlab chiqaruvchining ko‘rsatmalariga amal qiling.

Materiallar bilan ishlashda ehtiyot bo‘ling: Fotoelektr panellari mo‘rt va og‘ir bo‘lishi mumkin, shuning uchun ularni ishlatishda ehtiyot bo‘ling. O‘rnatish vaqtida ular ishonchli tarzda mahkamlanganligiga va ekstremal ob-havo sharoitlariga ta’sir qilmasligiga ishonch hosil qiling.

Tizimni kuzatib boring: tizimni har qanday eskirish yoki shikastlanish belgilari uchun muntazam ravishda kuzatib boring. maxkamlanmagan ulanishlar, korroziya va tizimning ishlashi va xavfsizligiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan boshqa muammolarni tekshiring.

Hududni himoya qiling: Agar sizning mulkingizda fotoelektr tizimi o‘rnatilgan bo‘lsa, ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun hudud himoyalanganligiga ishonch hosil qiling. Bu baxtsiz hodisalar yoki jarohatlarning oldini olishga yordam beradi.

Ushbu xavfsizlik qoidalariga rioya qilish orqali siz fotoelektr tizimingiz xavfsiz va samarali ishlashini ta’minlashga yordam bera olasiz, shu bilan birga odamlar va mulkka xavf tug‘dirish xavfini kamaytiradi.

Yaratilgan imkoniyatlar

Hozirda fuqorolar quyosh panellari va kollektorlarini uydan chiqmagan holda onlayn xarid qilish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, buning uchun https://energymarket.uz platformasiga kirib, istalgan korxonadan, istalgan quvvatdagi qurilmalarga onlayn ravishda buyurtma berish mumkin.

Elektr hisoblagichni o‘rnatish kerak: Elektr hisoblagich - bu tarmoqdan iste’mol qiladigan elektr energiyasini ham, fotoelektr tizimi bilan ishlab chiqaradigan elektr energiyasini ham o‘lchashi mumkin bo‘lgan maxsus hisoblagich. mahalliy hududiy elektr tarmoqlari bilan bog‘laning, ular tarmoq o‘lchash dasturlarini taklif qiladimi yoki yo‘qmi va ularning tarmoq hisoblagich o‘rnatish talablari bilan tanishing.

Fotoelektr tizimingizni tarmoqqa ulash kerak: elektr energiyasini sotish uchun sizning fotoelektr tizimingiz elektr tarmog‘iga ulangan bo‘lishi kerak. Ushbu ulanish odatda litsenziyaga ega bo‘lgan elektr bo‘yicha mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi va fotoelektr tizimi tomonidan ishlab chiqarilgan doimiy quvvatni uyingiz tomonidan ishlatilishi mumkin bo‘lgan va tarmoqqa qayta uzatiladigan AS quvvatiga aylantirish uchunon grid inverterni o‘rnatishingiz kerak.

Xonadon egalari “Hududiy elektr tarmoqlari” korxonasi bilan shartnoma imzolagandan so‘ng, 1 kV·soat elektr energiyasini davlatga 1000 so‘mdan sotishlari mumkin bo‘ladi va sotilgan elektr energiyasi uchun mablag‘lar davlat tomonidan har oy “Soliq” mobil ilovasi orqali fuqarolarning bank plastik kartalariga o‘tkazib beriladi.

4. Geliokollektorlarni ekspluatatsiya qilish bo‘yicha

Quyosh gelio-kollektorlari quyosh energiyasidan foydalangan holda issiq suv bilan ta’minlash uchun ishlatadigan qurilmalardir.

Gelio-kollektorlardan foydalanish tarmoqlari

Maishiy issiq suv: Quyosh gelio-kollektorlari maishiy foydalanish uchun suvni isitish uchun ishlatilishi mumkin. Oddiy tizim kollektor paneli, saqlash baki va suvni aylantirish uchun nasos yoki boshqa mexanizmdan iborat. Kollektor paneli quyosh energiyasini o‘zlashtiradi va uni issiqlik almashtirgichga o‘tkazadi, bu esa saqlash idishidagi suvni isitadi. Keyin isitiladigan suvni yuvish, cho‘milish yoki boshqa maishiy maqsadlarda ishlatish mumkin.

